

## JIZZAH VOHASI AHOLISI ETNOMADANIYATINING O'RGANILISHI

**Muzaffar Suvonkulov**

*Guliston davlat universiteti tayanch doktoranti,*

*mirzoulugbeksoniy@mail.ru*

### ARTICLE INFO.

**Kalit so'z:** Jizzax, etnomadaniyat, o'zbek urug'lari, Zarafshon.

### Annotatsiya

O'rta Osiyoning turli mintaqalari aholisining etnomadaniyati umumiylikka ega bo'lsa-da, ayrim o'ziga xos jihatlari bilan bir-biridan farq qiladi. Buni Farg'ona vodiysi, Zarafshon, Surxon, Xorazm vohasi aholisida kuzatishimiz mumkin. Bunga mintaqaning geografik joylashuvi, aholining xo'jalik turlari, kundalik hayot tarzi va boshqa ko'plab omillar sabab bo'lgan. Bu borada ko'plab izlanishlar olib borilgan. Ammo, biz kam o'rganilgan Jizzax vohasi aholisini etnomadaniyatini o'rganilishini tadqiq etmoqchimiz.

<http://www.gospodarkainnowacje.pl/> © 2023 LWAB.

O'RTA Osiyoning turli mintaqalari nafaqat o'zining geografik o'rni, tabiiy-iqlim sharoiti, iqtisodiy salohiyatining xilma-xilligi, balki aholisining etnik jihatdan turli-tumanligi bilan ham ajralib turadi. Asrlar davomida mintaqada turli qabila va elatlarning aralashuvi – assimilyatsiyasi natijasida hozirgi millatlar shakllangan va ularning madaniyati, urf-odat va an'analari, e'tiqodidagi umumiylik bilan birga o'ziga xosliklar ham shakllangan. Bu jarayonda yuqorida ta'kidlanganiday tabiiy-geografik joylashuvning ham o'rni beqiyos bo'lgan. Bu o'ziga xosliklarni Farg'ona vodiysi, Surxon vohasi, Zarafshon vohasi, quyi Amudaryo havzasi xalqlarida yaqqol ko'rishimiz mumkin.

Nafaqat mahallaiy olimlarimiz balki jahon miqyosida tariximizga qiziquvchi olimlar jamoasi juda ko'p va ular tomonidan Farg'ona vodiysi, Surxon vohasi, quyi Amudaryo xavzasi, Zarafshon vohasi tadqiq etilgan va tadqiqot ishlari hamon davom etib kelmoqda. Ammo, Jizzax vohasi aholisining etnomadaniy tarixi alohida tadqiq etilmagan. Qadimgi davrda So'g'diyonani, o'rta asrlarda Ustrushonani tarkibidagi viloyat sifatida qisqacha o'rganilgan. Podsho Rossiyasi istilosi davrida "Jizzax qo'zg'oloni" bir oz o'rganilgan bo'lib, atroflicha tarixi, aholisining etnik tarkibi, madaniyati tadqiq etilmagan.

Boburnoma memuarida ham Jizzax vohasi haqida qisqa bo'lsa-da qimmatli ma'lumotlar qoldirilgan.<sup>1</sup> Ammo, u ma'lumotlar XV-XVI asrlarga oid bo'lib, biz tadqiq etmoqchi bo'lgan davrdan ancha oldingi hisoblanadi.

O'rta Osiyo aholini etnik tarkibi haqida tadqiqot olib brogan B.Karmisheva ham mamlakatimizning ko'plab viloyat va vohalari, qo'shni Tojikiston, Qirg'iziston, Afg'oniston aholisi tarkibini tadqiq qilgan bo'lsa-da, Jizzax vohasi uning tadqiqotlari doirasiga kirmagan.<sup>2</sup>

<sup>1</sup> Bobur., Boburnoma., T.:

<sup>2</sup> Б.Кармышева., Очерки этнической истории южных районах Таджикистана и Узбекистана., М.:Наука., 1976

Yana bir rus tadqiqotchisi A.A.Grebenkin ham O'rta Osiyo xalqlarini etnik tarkibini sharxlar ekan Zarafshon vohasi aholisi haqida umumiy ma'lumot berib o'tadi. U Zarafshon vohasida yashovchi quyidagi urug'larni sanab o'tgan: 1) tuyoqli; 2) ming; 3) nayman; 4) uyshun; 5) qutchi; 6) qatag'on; 7) mang'it; 8) saroy; 9) baxrin; 10) yus (yuz); 11) qirq; 12) qoraqalpoq; 13) qipchoq; 14) xitoy; 15) mishon; 16) turkman; 17) jaloyir; 18) do'rmon; 19) urganchi; 20) turk.<sup>3</sup> A.Grebenkin Jizzax vohasiga kelib joylashgan tuyoqli (Jizzax-Samarqand yo'lida), ming (Jizzax tog'larini janybida), qirq-ming-yus (yuz) (Nov, O'ratepa, Zomin, Jizzax), turk (Davlat qushbegi boshchiligida O'ratepadan Jizzaxga ko'chib kelgan), nayman (Samarqand bilan chegara hududlar), uyshun (Jizzax), qutchi Qashg'ardan kelib o'rtnashgan, qatag'on, baxrin va mang'it urug'lari Samarqand va Kattaqo'rg'onda, yus (yuz) urug'i Samarqanddan kelib o'rtnashgan, qirqlar Miyonko'lga kelib o'rtnashgan, qoraqalpoqlar Xorazmdan ko'chib kelgan, xitoy va qipchoq urug'lari Dashti Qipchoqdan Subxonqulixon davrida ko'chib kelgan va son jihatidan eng ko'p urug'lar, mitan urug'i Rossiya hududlaridan kelgan va o'zlarini no'g'ay deb hisoblaydi, turkman urug'i temuriylar davridan buyon yashab keladi, jaloyirlar Kattaqo'rg'on, Oqdaryo va Xatirchida yashagan, urganji urug'i Xiva xonligidan kelib o'rtnashgan. Tadqiqotda hudud aholisini kundalik hayoti, madaniyati, turmush tarsi, xo'jalik va ijtimoiy hayotini batafsil yoritgan.

Etnograf olim T.Salimov Jizzax vohasining g'arbiy mintaqalarini o'z ichiga olgan Nurota aholisi tarkibi tadqiq etgan va qimmatli ma'lumotlar jamlagan. Bu ma'lumotlar ham Jizzax vohasini to'liq qamramagan.<sup>4</sup>

Polshalik tarixchi Mariya Chaplitskaya o'zining "The Turks of Central Asia in History and at the Present Day" asarida Markaziy Osiyo turklarining tarixi, madaniyati, ijtimoiy hayoti, e'tiqodi haqida yevropaliklarni xabardor qilgan bo'lib, asarda mamlakatimiz aholisi 5 qismga bo'lingan: 1) forslashgan turklar; 2) sartlar; 3) tatarlar; 4) o'zbeklar; 5) tojiklar. Forslashgan turklarni turkoman (Buxoro va Xorazmda 600 ming) deb ham ataydi. Sartlar (Farg'ona va Sirdaryo viloyatlari hamda Turkistonning boshqa hududlarida 1 mln 847 ming) deb tojiklar bilan aralashib ketgan turklarni nazarda tutgan. Ushbu ikki turk aholini tili jihatidan chig'atoy turkchasida gaplashganligi qayd etgan. Tatar deb qirg'iz, qaysaq (qozoq), qoraqalpoqlarni nazarda tutgan va tatar turkchasida so'zlashganliklarini qayd etgan. E'tiqodi jihatidan musulmonlar bo'lib sunna oqimiga mansub deb ta'kidlagan. Turkomanlarda nikoh masalasida qalin puli yuqori bo'lganligi, sartlarda shariatga qattiq amal qilinishi, ayollarni paranjida yurishi ta'kidlangan. O'zbeklar (jami 592 ming – Samarqand, Farg'ona va Sirdaryo viloyatlarining ba'zi hududlari hamda Buxoro va Xiva xonliklarida) ni yana qipchoq deb ham ataydi. O'zbeklarni Shayboniyxon bilan kelgan xalq sifatida ko'rsatib, nomlanishini ham Oltin O'rda xoni Muhammad O'zbekxon (1312-1340) bilan bog'laydi. Ularni turk, fors va mo'g'ul elementlarini birlashtirgan xalq sifatida ko'rsatib, tojiklar bilan yaqin yashasa-da madaniyati jihatidan turk-turon ana'analari ustunlik qilishini ta'kidlaydi.<sup>5</sup> Ushbu ma'lumotlar mamlakatimiz aholisi haqida umumiy ma'lumot bersa-da, tadqiq etayotgan obyektimiz Jizzax vohasi haqida xulosa qilish uchun yetarli emas.

Ingliz tarixchisi A.S.Morrisonning "Russian Rule in Samarkand 1868-1910" asarida Jizzax vohasi haqida ma'lumotlar bo'lib, unda Jizzax va Xo'jand 1886-yil Samarqand viloyati tarkibidagi uyezdlar bo'lganligi qayd etilgan. Zarafshon va Farg'ona vodiylari, Sirdaryo viloyatining janubiy ikki tumanlari Jizzax va Xo'jand (ikkalasi 1886-yilda yangi Samarqand viloyati tarkibiga kiradi) bilan birga Turkiston aholisining o'rtacha 85 foizini tashkil qilgan. U ham mintaqa aholisini turkman, sart, o'zbek, qaysaq (qozoq), qirg'iz va tojklarga bo'ladi.<sup>6</sup> Shuningdek, vohani rus qo'shinlari tomonidan bosib olinish jarayonlari ham batafsil yoritilgan.

<sup>3</sup> В.Н.Троцкий (под редакцией)., Русский Туркестан (сборник)., Выпуск 2., Москва – 1972. Ст 59.

<sup>4</sup> Вопросы этногенеза и этнической истории народов Средней Азии. Выпуск 5., Saarbrücken: LAP, 2020

<sup>5</sup> M.A.Czaplicka., "The Turks of Central Asia in History and at the Present Day"., OXFORD AT THE CLARENDON PRESS., 1918

<sup>6</sup> A.S.Morrison, Russian Rule in Samarkand 1868-1910., Published in the United States by Oxford University Press Inc., New York 2008. Pag 41

Yana bir ingliz tarixchisi “The Heart of Asia. A History of Russian Turkestan and the Central Asian Khanates from the Earliest Times” asarida Jizzax vohasi aholisi soni 300 ming atrofida bo‘lgan Samarqand viloyati tarkibidagi 4 ta tumanlardan biri ekanligi qayd etilgan.<sup>7</sup> Bu asarda ham rus qo‘shinlari bilan bo‘lgan janglarda ham Jizzax vohasi tilga olinadi. Aholisini tarkibi, madaniyati va kundalik hayoti haqida ma’lumotlar berilmagan.

Yuqoridagi ma’lumotlarni tahlil qilib aytishimiz mumkinki Jizzax vohasi aholisini etnik tarkibi, etnomadaniyati, madaniyati, mamlakatimiz tarixida tutgan o‘rni alohida tadqiq etishni talab etadi. Ayniqsa, XIX asr oxiri XX asr boshlarida mintaqa siyosiy jarayonlarda muhim o‘rin egalladi. Xususan 1916-yil qo‘zg‘oloni fikrimizning tasdig‘idir. To‘g‘ri mustaqillik yillarida voha tadqiq etildi. Ammo u tadqiqotlarda vohaning qadimgi, o‘rta asrlar davri yaxshi o‘rganilgan bo‘lib, keying davrlarda tor doirada tadqiq etildi. Biz aynan o‘sha davrlarni tadqiq etishni maqsad qildik. Hozirda aynan XIX asr oxiri XX asr boshlaridagi jarayonlar ustida ilmiy ish olib bormoqdamiz. Zero, dastlab Podsho Rossiyasi tomonidan olib borilgan istilo siyosati, keyinchalik Sobiq Ittifoq davrida olib borilgan quloqlashtirish, kolxozlashtirish va qatag‘on siyosati, Mirzacho‘lni o‘zlashtirish jarayonida voha aholisi hayotida juda ham keskin va jiddiy o‘zgarishlar bo‘lib o‘tdi.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Bobur., Boburnoma., T.: Yulduzcha nashriyoti., 1989
2. Б.Кармышева., Очерки этнической истории южных районах Таджикистана и Узбекистана., М.:Наука., 1976
3. В.Н.Троцкий (под редакции)., Русский Туркестан (сборник)., Выпуск 2., Москва – 1972.
4. Вопросы этногенеза и этнической истории народов Средней Азии. Выпуск 5., Saarbrücken: LAP, 2020
5. M.A.Czaplicka., “The Turks of Central Asia in History and at the Present Day”., OXFORD AT THE CLARENDON PRESS., 1918

<sup>7</sup> F.H.Skrine and E.D.Ross., The Heart of Asia. A History of Russian Turkestan and the Central Asian Khanates from the Earliest Times., London 1899., page 258